

5 MUHIM TASHABBUSNI JORIY ETISH YO‘LIDA
Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
tomonidan ilgari surilgan 5 ta muhim tashabbusni keng joriy etish yo‘nalishida amalga
oshirilgan ishlar:

1-tashabbus. Yoshlarning musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr va san’atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirish, iste’dodini yuzaga chiqarish bo‘yicha:
Universitet talaba-yoshlarini tajribali professor-o‘qituvchilar tomonidan o‘zbek, sharq va g‘arb adabiyotiga, milliy san’atning turli yo‘nalishlariga keng jalb etish, universitetda ijodiy to‘garaklar “Mangu bitik” adabiy-ijodiy to‘garagi, “Sharq yulduzi” teatr studiyasi, “Sanduvoch” ashula va raqs ansamli, “Dutorchilar” ansambli, “Sharq navolari” xor jamoasi faoliyat yuritadi.
Har bir o‘quv yilida 2 marotaba “Sharqshunos talabalar festivali” o‘tkaziladi.
Universitetda “Yilning eng faol talabasi” “Talabalar teatr studiyasi” , “Quvnoqlar va zukkolar” tanlovlari o‘tkaziladi.
Aktyorlik va boshlovchilik mahoratiga ega talabalardan iborat sharqshunos-talabalarning “Sharq yulduzi” teatr-studiyasi ishi yo‘lga qo‘yilgan.
Qo‘shiq va soz chaluvchi hamda raqsga qiziquvchi talabalardan iborat sharqshunos-talabalarning “Sanduvoch” ansambli tashkil etilgan.
Talaba-yoshlarning badiiy-estetik tafakkurini yuksaltirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni targ‘ib qilish, ijodkor talabalarni qo‘llab-quvvatlash hamda ularning iste’dodini ro‘yobga chiqarish maqsadida “Mangu bitik” adabiy-ijodiy to‘garagi tashkil etilgan.
Universitetning Talabalar turar joyida “Kasbim – mening faxrim” loyihasi doirasida “Kompyuter savodxonligi” nomli to‘garak faoliyat olib boradi.
Universitetimizda talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish va amaliy ko‘nikmalarini oshirish maqsadida “Tikuvchilik to‘garagi” faoliyati yo‘lga qo‘yilgan.
Oliy ta’lim tashkilotlari talaba-yoshlari o‘rtasida “Yurtim qadriyatlari” ko‘rik-tanlovi o‘tkaziladi.
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi talaba va o‘quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirish markazi tomonidan yoshlarning ma’rifati, ilm hamda tafakkurini yuksaltirish maqsadida “Ma’rifat maydoni” ko‘rik-tanlovi o‘tkaziladi.
Oliy ta’lim tashkilotlari talaba-yoshlari o‘rtasida “Talabalar teatr studiyalari” ko‘rik-festivali o‘tkaziladi.
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Talaba va o‘quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirish markazi ta’lim muassasalari pedagog xodimlari va talabalari o‘rtasida “Islahotlar bilimdoni” respublika ko‘rik-tanlovi o‘tkaziladi.
Universitetda tahsil olayotgan ona tili o‘zbek tili bo‘lmagan xorijlik talaba-yoshlar o‘rtasida “O‘zbek tili – qalbm tarjimoni” ko‘rik-tanlovi o‘tkaziladi.
O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi hamda Madaniyat va ma’rifat kanali hamkorligida “Shoir-u she’r-u shuur...” nomli nazm va navo kechasi tashkil etiladi.

2-tashabbus. Yoshlarni jismoniy va sport sohasida o‘z qobiliyatlarini namoyon qilishlari uchun zarur sharoitlar yaratib berish bo‘yicha:

Universitet talaba-yoshlarini jismonan chiniqtirish, ularni sog‘lom shaxs sifatida kamol toptirish, barcha talabalarning qiziqishlarini inobatga olgan holda, to‘liq sport inventarlari bilan ta‘minlangan sport to‘garaklariga biriktirilgan. Talabalar o‘rtasida ommaviy sport musobaqalarini tashkil etilgan, sportning futbol, voleybol, basketbol, shaxmat, yengil atletika va stol tennisi bo‘yicha **“Rektor kubogi”** musobaqalari tashkil etilgan.

“Sport-salomatlik garovi” shiori ostida yosh o‘qituvchilar va talabalar o‘rtasida sport musobaqalari tashkil etilgan.

Stol tennisi sport turini ommalashtirish uchun sharoitlar yaratilgan va to‘garak tashkil etilgan.

“Talabalar ligasi”, “Universiada”, “Talaba-yugur”, “Sharqshunos talabalarning sport festivali–2025”, “Besh tashabbus olimpiadasi”, “Yangi O‘zbekiston talabalari olimpiadasi” sport musobaqalari, **“Sport-salomatlik garovi”** shiori ostida yosh o‘qituvchilar va talabalar o‘rtasida sport musobaqalari, **“Amir Temur vorislari”** nomli harbiy-sport musobaqasi o‘tkaziladi.

Universitet va talabalar turar joyida o‘qituvchilar va talabalar ishtirokida fakultetlararo **spartakiada** o‘tkaziladi.

3-tashabbus. Aholi va yoshlar o‘rtasida kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanishni tashkil etish bo‘yicha:

Universitet talaba-yoshlarida axborot tahlili madaniyatini shakllantirish. Universitetda qo‘shimcha Wi-Fi zonalarini tashkil etish hamda talabalar turar joylarini Internet jahon axborot tarmog‘i bilan to‘liq qamrab olish.

Kompyuter texnologiyalari bo‘yicha talabalar o‘rtasida **“Bloggerlar”, “Yosh ixtirochilar”, “Klipmeykerlar”** tanlovlarini tashkil etilgan.

Universitetdagi yangiliklar, uchrashuvlar, muammolar bilan bog‘liq tahliliy maqolalar va sharqshunos-ijodkorlarning asarlarini berib borish maqsadida elektron hamda bosma ko‘rinishdagi **“Sharqdan xabarlar”** gazetasi va telegram kanalini tashkil etilgan.

Talaba-yoshlar o‘rtasida **“Mening O‘zbekistonim”** videoroliklar tanlovi o‘tkaziladi.

Oliy ta‘lim tashkilotlari talaba-yoshlari o‘rtasida **“Quest step by step”** loyihasi o‘tkaziladi.

“Eng yaxshi kreativ g‘oya” respublika tanlovi o‘tkaziladi.

Talabalar o‘rtasida turli intellektual o‘yinlari **“Zakovat”, “DEBATE”** intellektual o‘yini, **“Munozara”, “Tarixiy zakovat”** o‘yini, **“Ittifoq Quiz”** intellektual o‘yini o‘tkazildi.

“VII Sharqshunos talabalar festivali” doirasida **“Sharqshunos kitobxon”** loyihasi, **“Zakovat QUIZ”** intellektual o‘yini, **“Milliy qadriyatlar”** ko‘rik tanlovlari bo‘lib o‘tadi.

4-tashabbus. Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ular o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish bo'yicha:

Universitet talaba-yoshlarida ona-Vatanga muhabbat uning taqdiriga daxldorlik, fidoyilik hissini badiiy adabiyotlar orqali qaror toptirish va axborot-resurs markazi kitob fondini yangi adabiyotlar bilan boyitish, tadbirkorlarni jalb etib, fakultetlarda **tadbirlar** tashkil etish.

Universitetda talaba-yoshlarni kitob mutolaasiga jalb etish, badiiy savodxonlik darajasini oshirish orqali ularni vatanparvarlik va yurtimiz kelajagiga daxldorlik ruhida tarbiyalashga qaratilgan **“Ma'rifat ulashib”** loyihasini tashkil etilgan.

“Yosh kitobxon” tanlovi o'tkaziladi.

Talaba va o'quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirish markazi tomonidan **“Kitobxon yoshlar ligasi”** onlayn tanlovi tashkil etilgan

Universitet talaba-yoshlari uchun **“Eng yaxshi kitobxon”** stipendiyasi joriy etilgan.

Universitet talaba-yoshlari uchun **“Ogahiy nomidagi stipendiya”**si joriy etilgan.

Universitet talaba-yoshlari o'rtasida **“Navoiy izdoshlari”** nomli tanlovi o'tkaziladi.

“Vatan bo'ylab sayohat” shiori ostida mamlakatimizning qadimiy va boy tarixini o'rganish, yoshlar orasida keng targ'ib etish, ularda milliy g'urur va iftixor tuyg'usini mustahkamlash maqsadida **“Ajdodlar xotirasi yodimizda”** (Adiblar xiyoboni, muqaddas qadamjolarga) **“O'zbekiston – jannatmakon diyor”, “Biz nechun sevamiz, O'zbekistonni”, “Bunyodkorlik yo'lida”** mavzularida professor-o'qituvchilar va talablarning madaniy ekskursiyalarini tashkil etiladi.

5-tashabbus. Xotin-qizlarni ish bilan ta'minlash bo'yicha:

Yoshlar, ayniqsa, xotin-qizlarning ijtimoiy faolligini oshirish, ularni amaliy kasb egasi sifatida tarbiyalash bo'yicha chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish, talabalarning doimiy yashash hududidagi mavjud bo'sh ish o'rinlarini o'rganish va ushbu bo'sh ish o'rinlariga bitiruvchi talabalarni jalb etib, bandligini ta'minlash tizimini yo'lga qo'yish.

Universitet psixologi va Xotin-qizlar tashkiloti hamkorlikda **“Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash”** maxsus kurslari tashkil etilgan.

Universitet psixologi hamda tyutorlar hamkorligida psixologiyaga qiziquvchi talabalar orasida **“Yosh psixologlar”** klubi tashkil etilgan.

Universitet psixologi va xotin-qizlar qo'mitasi hamkorligida yoshlar va talaba-qizlarning psixologik muammolariga qaratilgan **“Ruhiyat ozig'i”** telegramm kanalini ishga tushirilgan.

Universitetda talaba-qizlarni axloqiy va estetik madaniyatini, ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularni kasb-hunarga yo'naltirish maqsadida **“Qizlarjon”** va **“Lider qizlar”** klubi faoliyati yo'lga qo'yilgan.

Talabalar turar joylaridagi talaba-o'quvchi qizlar o'rtasida ma'naviy-axloqiy, tarbiyaviy ishlarni tashkil etish va samaradorligini oshirish choralari ko'rilgan.

Universitetda talaba-qizlar o'rtasida **“Milliy liboslar – mening iftixorim”** mavzusida milliy liboslar oyligi o'tkaziladi.

“Ilmli ayol – jamiyat ko‘zguzi” mavzusida 11-fevral – Xalqaro ilm-fan sohasidagi ayollar va qizlar kuni munosabati bilan haftalik o‘tkaziladi.

Oilaviy ajrimlarni oldini olish maqsadida **“O‘z kelajaging uchun o‘zing mas’ulsan”** shiori ostida tajribali ustozlar, psixologlar ishtirokida tadbirlar tashkil etiladi.

“25-noyabr – Xalqaro ayollarga nisbatan zo‘ravonlikka barham berish kuni” munosabati bilan haftalik o‘tkaziladi.

Mahallalar bilan hamkorlikda **“Oila mustahkamligi uchun barchamiz mas’ulmiz!”** shiori ostida oilalarni mustahkamlash, notinch oilalardagi muhitni sog‘lomashtirish tadbirlari tashkil etiladi.